



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

Каршинский государственный технический университет

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук, профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в электронной форме и публикуется через официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал «Инновационная экономика» включён в перечень национальных научных изданий на основании решения Президиума Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 5 апреля 2025 года № 369.

В журнале публикуются статьи по следующим рубрикам:

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик (Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор (Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор, (Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик (НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор (Таджикистанский аграрный университет им. Ш. Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент (Национальный исследовательский университет «Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник (Российского университета дружбы народов имени П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент (Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н., профессор (Национальная академия наук Республики Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор (Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор (Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент (Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор, академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA INVESTITSION RESURLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH VAZIFALARI

Ashurova Maftuna Ortiq qizi

ЗАДАЧА ПО ПОВЫШЕНИЮ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В СФЕРЕ УСЛУГ

Ашурова Мафтуна Ортиқовна

THE TASK OF INCREASING THE EFFICIENCY OF INVESTMENT RESOURCES IN SERVICES

Maftuna Ashurova Ortikovna

Received: February 3, 2026 Revised: February 9, 2026 Accepted: February 14, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada xizmat ko'rsatish sohasida investitsion resurslar samaradorligini oshirish vazifalari xizmatlar sohasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va investitsion resurslar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasi va investitsion resurslarning tanqisligi sharoitida intensiv omillarning iqtisodiy o'sishdagi roli va ulushi alohida ahamiyatga ega ekanligi ilmiy va mantiqiy dalillar bilan asoslab berildi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish, investitsion resurslar, samaradorlikni oshirish, tarkibiy tuzilish, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot, innovatsion iqtisodiyot.

Аннотация: В данной статье представлены задачи повышения эффективности использования инвестиционных ресурсов в секторе услуг на основе результатов исследований научно-теоретических основ совершенствования структурной структуры сектора услуг по секторам и повышения эффективности использования инвестиционных ресурсов, а также на основе научно-логических доказательств того, что роль и доля интенсивных факторов экономического роста имеют особое значение в условиях дефицита инвестиционных ресурсов.

Ключевые слова: услуги, инвестиционные ресурсы, повышение эффективности, структурная структура, социально-экономическое развитие, инновационная экономика.

Abstract: This article presents the tasks of increasing the efficiency of investment resources in the service sector, based on the results of research on the scientific and theoretical foundations of improving the structural structure of the service sector by sectors and increasing the efficiency of investment resources, and on scientific and logical evidence that the role and share of intensive factors in economic growth are of particular importance in conditions of shortage of investment resources.

Keywords: service, investment resources, increasing efficiency, structural structure, socio-economic development, innovative economy.

■ KIRISH

Xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion asosda jadal rivojlantirishning dolzarb muammolarini hal etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarda, xizmat ko'rsatish sohasining aholi turmush darajasini oshirishdagi, aholi bandligini ta'minlashdagi va hayot farovonligini oshirishdagi roli, iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, aholining iste'mol xarajatlari tarkibida xizmatlar sohasi ulushini oshirish, bilimlar iqtisodiyotini shakllantirish va uning

inson kapitalini rivojlantirishdagi ahamiyati, sohada yangi xizmat turlarini yaratish va amaliyotga joriy etish kabi muhim masalalar tadqiq etilmoqda. Shu bilan birga, xizmatlar sohasida investitsion resurslar tanqisligi sharoitida ularni soha tarmoqlari kesimida taqsimotini muayyan mezonlar asosida takomillashtirish o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi oldidagi vazifalar, investitsion resurslarni soha tarmoqlari kesimida taqsimlanishini



takomillashtirishning asosiy mezonini sohaga jalb etilgan investitsion resurslar samaradorligini oshirish kabi yo'nalishlardagi ilmiy- tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida xizmat ko'rsatish sohasini jahon talablari asosida rivojlantirish, sohaning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, xizmat ko'rsatishning yangi turlarini keng joriy qilish, xizmat ko'rsatish sohasini kengaytirish orqali makro va mikro darajada barqarorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilash kabi yo'nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

"Hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali keyingi besh yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish" kabi muhim vazifalar qo'yilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasi tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosida investitsion resurslar samaradorligini oshirishda, miqdor va sifat ko'rsatkichlari asosida sohaga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tarkibini aniqlashtirish maqsadga muvofiq.

Xizmat ko'rsatish sohasiga oid ilmiy izlanishlarini va ularning soha rivojiga qo'shgan salmoqli hissalarini inkor etmagan holda, shuni ta'kidlash zarurki, ularning tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi, ko'lami va tarkibiy tuzilishi bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, bu borada hozirgi kunda mavjud muammolarni aniqlash, sohaning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosida investitsion resurslar samaradorligini oshirish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xizmat ko'rsatish sohasi nazariyasining rivojlanishida muhim rol o'ynagan bir qator xorijlik olimlar J.E.Donovan, D.A.Fergyson o'zlarining ilmiy ishlarida xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyatini yoritib bergan. Zamonaviy sharoitda uchlamchi sektorning faoliyati va rivojlanishining nazariy jihatlariga bag'ishlangan ko'plab ishlari mavjud. Shuningdek, I.A.Kiselyova, S.O.Iskandzhyan, A.N.Makarevich, A.A.Volkova kabi olimlarning olib borayotgan tadqiqotlarida asosan postindustrial jamiyatga o'tishning zaruriy shartlari, iqtisodiyotning o'sishida uchlamchi sektor rivojlanishining o'rni va ahamiyati tahlil qilinmoqda.

O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida xizmat ko'rsatish sohasining nazariy masalalarni respublikamizning iqtisodchi-olimlari M.M.Muxammedov, M.Q.Pardayev, Q.J.Mirzayev, D.X.Asanova, J.R.Zaynalov va boshqalar tadqiq etgan.

Yuqorida qayd etilgan xorijlik va mahalliy olimlarning xizmat ko'rsatish sohasiga oid ilmiy izlanishlarini va ularning soha rivojiga qo'shgan salmoqli

hissalarini inkor etmagan holda, shuni ta'kidlash zarurki, ularning tadqiqotlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi, ko'lami va tarkibiy tuzilishi bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish bilan bog'liq masalalarga jiddiy e'tibor qaratilmagan.

Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda erishilgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish, bu borada hozirgi kunda mavjud muammolarni aniqlash, sohaning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosida investitsion resurslar samaradorligini oshirish bilan bog'liq ilmiy-nazariy va uslubiy jihatlarini bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqish Yangi O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

■ TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida xizmat ko'rsatish sohasida investitsion resurslar samaradorligini oshirish vazifalari vujudga kelish xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari masalalari qiyosiy fikrlash, induksiya va deduksiya hamda abstraksiya usullaridan keng foydalanilgan.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Mamlakatimiz iqtisodiyotida xizmat ko'rsatish sohasining ulushini oshirish, uning mavjud salohiyatini joylarda to'liq ro'yobga chiqarish, xizmatlar turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek, resurslar bilan ta'minlash sohasida hal qilinishi zarur bo'lgan muammoli masalalarni hal etish hozirgi makroiqtisodiy siyosatning muhim tarkibiy qismidir. Ushbu yo'nalishda davlat xizmat ko'rsatish sohasi oldiga asosiy vazifalarni qo'ydi:

- birinchidan, xizmat ko'rsatish sohasini iqtisodiy o'sishni ta'minlashning asosiy haydovchisiga aylantirish va 2027 yilga kelib xizmatlar hajmini ikki baravar oshirish maqsad qilib qo'yilgan;

- ikkinchidan, aholini kasbga o'rgatishdan tortib tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishgacha, shu jumladan ularga tayyor biznes – rejalar va loyihalarni taqdim etishgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oluvchi "kompleks xizmatlar"ni tashkil etish;

- uchinchidan, davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish, shuningdek, respublikada xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish darajasini baholash tizimini joriy etish orqali mansabdor shaxslarning javobgarligini kuchaytirish;

- to'rtinchidan, xizmat ko'rsatish sohasidagi ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, har bir mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmatlar ro'yxatini kengaytirish va, xususan, qishloq joylarda transport, moliya, bank, turizm va savdo xizmatlari qamrovini oshirish.

- beshinchidan, respublikaning barcha hududlarida ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari salohiyatini oshirish va sifatini yaxshilash, shuningdek, xususiy sektorni jalb qilish uchun qulay iqtisodiy va infratuzilma sharoitlarini yaratish.

Albatta, yuqoridagi vazifalarni bajarish sohaga katta miqdordagi investitsiya resurslarini jalb qilishni va ularni tarmoqlar va iqtisodiy mintaqalar bo'yicha joylashtirishni optimallashtirishni talab qiladi. Bizningcha, ushbu muammoni hal etishning ikki omili mavjud. Birinchi omil – bu ekstensiv omil bo'lib, u sohaga jalb etiladigan investitsion resurslar hajmini



kengaytirishni nazarda tutadi. Ikkinchi omil iqtisodiy o'sishning intensiv omillari bilan bog'liq bo'lib, sarflangan har bir investitsion resurs birligiga ko'proq natija olishda namoyon bo'ladi.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasining bugungi holati, undagi investitsion resurslar samaradorligi ko'rsatkichlarining pastligi ko'p jihatdan ijtimoiy ishlab chiqarishda ekstensiv omillar rolining yuqoriligi bilan izohlanadi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mamlakatda aynan ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligining pastligini iqtisodiy resurslardan, jumladan, investitsion resurslardan samarali foydalanilmayotganligiga katta e'tibor qaratdi. Shu sababli, O'zbekistonda iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish strategiyasini izchillik bilan amalga oshirishga qaratilgan siyosatni amalga oshirish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonida 2030 yilga kelib iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va jadallashtirish hisobiga O'zbekiston Respublikasini global innovatsiyalar indeksi bo'yicha dunyoning 50 ta etakchi davlati qatoriga kiritish vazifasi qo'yildi. Xizmat ko'rsatish sohasi mamlakat milliy iqtisodiyotining ajralmas qismi sifatida, makro darajada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat yo'nalishlari va tamoyillariga amal qilishi lozim. Shu bilan birga, sohadagi innovatsion jarayonlarni jadallashtirish bo'yicha tegishli siyosatni amalga oshirish, iqtisodiy rivojlanishning samarali va barqaror bo'lishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, xizmatlar sohasi tarmoqlarining samarali rivojlanishida innovatsiyalar muhim omil hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsiyalar ijtimoiy ehtiyojlarni yanada samarali qondirishga qodir bo'lgan innovatsion faoliyat natijasidir. Innovatsiya – bu yangi g'oyalarni yaratish, sinab ko'rish va amalga oshirishning uzluksiz jarayoni. Bu yangi g'oyalar ushbu sohani taraqqiyotning yangi bosqichlariga chiqarishning asosiy omili sifatida qaralmog'i lozim. Moliyaviy resurslar tanqisligi sharoitida innovatsiyalarni investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish va ular bilan bog'liq xarajatlarni kamaytirishning asosiy omiliga aylantirish muammosi sanoatni jadal rivojlantirish uchun eng dolzarb vazifalardan biridir.

Innovatsion iqtisodiyotning shakllanishi ta'lim, fan, tibbiyot, madaniyat va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohalarida sifatli xizmatlarning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Bu, xususan, intellektual asosda yaratilgan va ilmiy bilimlardan foydalanishni talab qiladigan yangi xizmat turlarining paydo bo'lishida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, an'anaviy xizmatlar – ishlab chiqarish, texnika, tashkiliy, savdo, maishiy va ta'mirlash, shuningdek bozor infratuzilmasi xizmatlari – iqtisodiy faoliyatning turli sohalaridagi innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlash va ularga hissa qo'shish orqali o'zlarining innovatsion salohiyatiga ega.

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasini, uning tarkibiy tarmoqlarini va xizmat ko'rsatish tarkibiy

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

qismlarini innovatsion rivojlantirish masalasi eng dolzarb vazifalardan biri sifatida qaralmoqda". Ushbu o'ta muhim muammoni hal etishning hozirgi zamon talablariga javob beradigan, samarali yo'llarini izlab topish zarur. Bizning nazarimizda, avvalambor, muammolar tarkibini aniqlashda sohadagi innovatsion rivojlanishning jadallashuviga zamonaviy ijtimoiy taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari obyektiv ta'sir ko'rsatishini e'tiborga olishimiz lozim. Ayni paytda, ushbu sohada o'ziga xos xarakterli qonuniyatlar mavjud bo'lib, ular xizmatlar sohasi va uning alohida tarmoqlariga bevosita va kuchli ta'sir ko'rsatadi, bulardan eng muhimlarini ajratib ko'rsatishni lozim deb topdik.

Birinchidan, aholi va tadbirkorlik sektoridan bozor va ijtimoiy xarakterdagi yangi yuqori texnologiyali xizmatlarga talabning oshishi, shuningdek, iste'molchilarning turli maqsadlar uchun xizmatlar sifatiga bo'lgan talablarining murakkablashishi obyektiv qonuniyat sifatida qaraladi. Ushbu naqsh turli xil innovatsiyalar oqimini rag'batlantiradi va xizmat ko'rsatish faoliyatining turli jihatlarini yangilashni talab qiladi.

Ikkinchidan, xizmat ko'rsatish sohasidagi innovatsion faoliyatning rivojlanish sur'ati boshqa sohalaridagi innovatsion jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lishi kerak. Postindustrial jamiyat sharoitida xizmatlar sektorining moddiy-texnika bazasi, uning tarmoqlarida amalga oshayotgan innovatsion faoliyatning hajmi va milliy iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, iqtisodiyotda xizmat ko'rsatish sohasini etakchi soha sifatida shakllantirish, ya'ni postindustrial jamiyatni barpo etish muammosini hal qilishning iloji bo'lmaydi.

Uchinchidan, ma'lumki, xizmat ko'rsatish va servis sohasida innovatsion faoliyat turli-tuman obyektiv va subyektiv omillar ta'siri ostida rivojlanadi. Lekin, ushbu omillarning ta'sir kuchi mamlakat hududlari kesimida bir-biridan ma'lum farqlarga ega bo'ladi. Taraqqiyot jarayonida ushbu tafovutlarni bosqichma-bosqich bartaraf etish asosida barcha hududlarni o'zaro tenglashtirish o'tkir zaruratga aylanadi. Boshqacha so'zlar bilan ifodalaganda, mamlakat hududlari bo'yicha innovatsion muhitni bir xil maxrajga keltirish va ularni o'zaro tenglashtirish alohida qonuniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, iqtisodiyotning barcha sohalarini, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasini ham, innovatsiyalarsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Biroq, ko'pgina korxonalar amalda innovatsiyalarni qo'llashda bir qator muammolarga duch kelayaptilar. Birinchi galda, innovatsiyalar yangilikni joriy etish bo'yicha katta xavf-xatar bilan bog'liq. Shu sababli, tadbirkor innovatsiyalarni joriy etishni va korxona faoliyatini xavf ostiga qoldirishni xohlamaydi.

Shu sababli, korxonalar o'z faoliyatini olib borish jarayonida riskni batamom yo'qota olmaydi. Lekin yaxshi malakaga ega bo'lgan, tajribali rahbar risk darajasini pasaytirish imkonini topadi. Shuning uchun rivojlanish istagida bo'lgan har qanday korxona, jumladan, xizmat ko'rsatish sohasi korxonasi ham



innovatsiyalarni qabul qilishi va o'z faoliyatida ularni keng joriy etishi kerak:

- iqtisodiyotning Real sektorida ilmiy va innovatsion ishlanmalarni tijoratlashtirishning nisbatan past darajasi, shuningdek, fan, ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlikning kam rivojlangan aloqalari;

- innovatsiyalarni qo'llagan holda ishlab chiqarish tashkilotlari va xizmat turlari sonini ko'paytirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag'batlantirish, shuningdek, ishsizlarni, ayniqsa yoshlar va ayollarni, shuningdek mehnat bozoriga birinchi marta kirib kelayotgan bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash uchun aholi bandligi va daromadlarining o'sishiga har tomonlama ko'maklashish, ko'plab yangi ish o'rinlari tashkil etish, shuningdek, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini yanada rag'batlantirish, sanoat tashkilotlari va klasterlari, venchur tashkilotlari va tegishli moliyaviy bozorlarning turli vositalari yordamida kapital yaratishni ta'minlaydigan tizim, ya'ni arzonlashtirilgan va ommaviy ishlab chiqarish;

- davlat-xususiy sheriklik prinsiplari bo'yicha ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini kuchaytirish va hajmini oshirish, xalqaro moliya tashkilotlari va jamg'armalar mablag'larini jalb etish, shuningdek, kichik va innovatsion tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashni talab qiladigan texnoparklar, innovatsion markazlar va yoshlar texnoparklar orqali tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish;

- hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ularning ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlari hali ishlab chiqilmagan. Bundan tashqari, ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasini doimiy ravishda yangilab turishni ta'minlashga qaratilgan echimlarni amalga oshirishda innovatsion texnologiyalarga e'tibor va ustuvorliklarni belgilash zarurati mavjud;

- muvaffaqiyatli startup-loyihalarni seriyali ishlab chiqarish bosqichlarida ularni innovatsion texnoparklar va erkin iqtisodiy zonalar tarkibiga kiritish orqali qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlari ishlab chiqilmagan, shuningdek, xususiy sektorning yangi ilmiy ishlanmalarga qiziqishini kuchaytirish va innovatsiyalarni "birgalikda moliyalashtirish"da ishtirok etishini rag'batlantirish uchun maxsus rag'batlantirish choralari joriy etilmagan.

Yuqorida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida "innovatsiya" va "investitsiya" tushunchalarining o'zaro bog'liqligini ko'rib chiqishimiz maqsadga muvofiq. Chunki, har ikkala tushuncha o'zaro uzviy bog'liqlikda bo'lib, bir-biriga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, innovatsion faoliyatni jadallashtirish katta miqdordagi investitsion resurslarni jalb etishni, ulardan maqsadli va unumli foydalanishni taqozo etadi. O'z navbatida, investitsion resurslardan samarali foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etilgan investitsion resurslarga yo'naltirilgan investitsion sarf-xarajatlarning har bir so'miga olinadigan natija, birinchi galda, innovatsiyalarning imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga bog'liq.

Ilmiy adabiyotlarda investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi o'zaro uzviy chambarchas

<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

bog'liqlik sohaning ko'p tadqiqotchilari tomonidan e'tirof etilgan. Ular investitsiyalar ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlash, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, umuman, innovatsiyalarni jadallashtirishning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydilar. Shu bilan birga, ular yangi texnika va texnologiyalarni, yangi uskunalarni qo'llashning o'zi investitsiya resurslarining iqtisodiy samaradorligini oshirishning muhim elementi ekanligini tan olishadi. Lekin biz, mazkur paragrafning nomidan kelib chiqqan holda, innovatsiya va innovatsion faoliyatning investitsion resurslar iqtisodiy samaradorligini tadqiq etishga asosiy e'tiborimizni qaratdik.

Tadqiqot jarayonida innovatsion faoliyatning mohiyati xususida turli yondashuvlar mavjudligini aniqladik. Ushbu yondashuvlarda turli olimlar "innovatsiya" tushunchasiga turlicha talqinlar berishgan. U. Latsonik o'zining ilmiy qarashlarida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishi va samadarligini oshirish to'g'ridan-to'g'ri innovatsion faoliyat ososida amalga oshirilishini ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, uning fikriga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri xizmatlarning raqobatbardoshligi bo'lib, u har bir xizmat ko'rsatish korxonasida innovatsiyalar darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sohasidagi korxonalarining innovatsion rivojlanishini ta'minlash, inson salohiyatining qimmatli fazilatlarini ro'yobga chiqarish, eng so'nggi bilimlar hajmini oshirish va ularni samarali foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olishi zarur.

"Investitsiya" tushunchasiga oid yuqorida keltirilgan xorijiy va mahalliy olimlarimiz ta'riflarini tanqidiy tahlil qilish asosida, uning o'z talqinimizdagi ta'rifini ishlab chiqdik: "Investitsiyalar – iqtisodiyotni har bir soha va tarmog'ini, shuningdek, tarkibidagi har bir xo'jalik subyekti faoliyatini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda barcha modernizatsion strategiyalarni amalga oshirishning asosi va muhim sharti bo'lib, iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikni oshirish maqsadida amalga oshiriladigan moddiy, moliyaviy va mehnat resurslarining umumiy sarflaridir.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni tahlil qilish natijasida, "innovatsiya- investitsiya" – bu yaxlit tizim ekanligini va aynan innovatsiyalar investitsiyaning yuqori samaradorligini ta'minlab beradi degan xulosaga keldik. Ushbu xulosamizni asoslab berish maqsadida "innovatsion investitsiyalash", "innovatsiyalarga investitsiyalar" degan tushunchalarni farqlab olishimiz zarur. Bizning fikrimizcha, innovatsion investitsiyalash – bu innovatsiyalarni moliyalashtirishning yangi shakllarini yaratish va yangi manbalarni izlash zaruriyatidir. Innovatsiyalarga kiritiladigan investitsiyalar, tarmoq faoliyatining samaradorligini oshirish, qo'shimcha daromad olish, yangi mahsulotlar va xizmatlar, zamonaviy texnologiyalar hamda ishlab chiqarish usullarini joriy etish jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va innovatsiyalar o'rtasidagi bog'liqlikning yana bir muhim jihati shundaki, investitsiyalarni barcha sohalarga — iqtisodiy, ijtimoiy,



ilmiy, tashkiliy, ekologik hamda xizmatlar sohasiga yo'naltirish imkoniyati mavjud. Aynan, innovatsion yondashuv aniq samara va kerakli natijalarni beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, innovatsiyalar jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Amalda ular foydani ko'paytirish orqali iqtisodiy samarani oshirishning quroli, vositasi hisoblanadi. Xizmatlar faoliyati serqirra va murakkab bo'lib, innovatsion jarayonlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratuvchi qulay makon hisoblanadi. Keskin raqobat muhitida faoliyat yuritayotgan xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari, nisbatan yuqori sifatli innovatsion xizmat yoki mahsulotlarni yaratish, yangi yo'nalishlar ishlab chiqish, tannarxni pasaytirish, vaqt birligida mahsulot hajmini oshirish, iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratish va boshqa samarali tadbirlar orqaligina bozordagi o'z mavqeini saqlab qolishga va uni mustahkamlashga erishadi. Bu esa, pirovard natijada sohada yuqori daromadlilikni ta'minlaydi.

Shu sababli, xizmat ko'rsatish sohasi faqat innovatsiyalardan o'rinni foydalanish evaziga inson faoliyati barcha turlari o'rtasida eng yuqori daromadli soha sifatida mavqeini saqlab qoladi.

Yuqoridagilardan umumiy xulosa shundan iboratki, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini mamlakat milliy iqtisodiyotining etakchi sohaslaridan biriga aylantirish maqsadida tez sur'atlar bilan rivojlantirishni zaruriy investitsion resurslar bilan ta'minlashning ekstensiv omillari benihoya cheklangan ahamiyatga ega. Demak, sohaning investitsion resurslarga ehtiyoj va talablarini qondirishda asosiy omilni intensiv omillar o'ynashi lozim. Iqtisodiy o'sish faqat ekstensiv yoki faqat intensiv omillar hisobidan amalga oshmaydi. Lekin u yoki bu guruh omillarining ustunligiga erishish mumkin.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Xizmatlar sohasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini takomillashtirish va investitsion resurslar samaradorligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosa va takliflar keltirildi.

Bugungi kunda O'zbekistonda investitsion resurslarning tanqisligi sharoitida intensiv omillarning iqtisodiy o'sishdagi roli va ulushi alohida ahamiyatga ega ekanligi ilmiy va mantiqiy dalillar bilan asoslab berildi. Muallifning fikriga ko'ra, xizmatlar sohasida ushbu nisbat taxminan ¼ ga teng bo'lmog'i, bunda intensiv omillar asosiy rol o'ynashi, ya'ni mazkur sohada iqtisodiy o'sishning 25 foizi ekstensiv, qolgan 75 foizi esa intensiv omillar hisobidan amalga oshishi kerak.

Mamlakatimizda investitsion resurslarning tanqisligi oqibatida uchlamchi sektorning rivojlanishi va YaIM tarkibida ulushining oshishi jiddiy muammo va

qiyinchiliklar bilan amalga oshmoqda. Dissertatsiyada xizmatlar sohasidagi investitsion resurslar tanqisligi muammosini hal etishning ikki yo'nalishi mavjudligi asoslab berildi. Birinchisi, xizmatlar sohasiga yo'naltirilgan investitsion resurslar hajmini oshirish. Ikkinchisi, sohasining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilishini takomillashtirish asosida ulardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ashurova Maftuna Ortiq qizi- Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi / Ашурова Мафтунэ Ортиковна-самостоятельный соискатель Деновский институт предпринимательства и педагогика / Maftuna Ashurova Ortikovna - independent candidate, Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
[ORCID :0009-0000-9811-453X](https://orcid.org/0009-0000-9811-453X),
E-mail: maftuna.ashurova.00@mail.ru

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2025-yil 25-dekabr. [Elektron resurs]. Kirish yo'li: // <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
2. Киселёва И.А., Искаджян С.О. Сфера услуг как основа развития современной экономики // Финансовая аналитика: проблемы и перспективы. 2013. № 46.
3. Макаревич А.Н. Предпосылки становления и экономические особенности функционирования сферы услуг // Вестник Новгородского государственного университета. 2010. № 60. С. 10.
4. Volkova A.A., (2014). Service industry: theoretical analysis // Bulletin of the St. Petersburg University of Economics. No. 4 (88). P. 12. (In Russ.).
5. Мухаммедов М.М. Хизмат кўрсатиш соҳаси ва туризмни ривожлантиришнинг назарий асослари. Монография. Самарқанд: "Zarafshon", 2017. – 300 б.
6. Пардаев М.Қ. Хизмат кўрсатиш тармоқлари иқтисодиётининг айрим муаммолари. Монография. – Т.: "Наврўз" 2014. – 264 б.
7. Мирзаев Қ.Ж. Хизматлар соҳаси иқтисодиёти. Дарслик – Самарқанд: "Fan buloq'i" нашриёти, 2022. – 252 бет.
8. Асланова Д.Х. ва бошқалар. Агро экотуристский кластер: сущность и возможности его формирования в регионах. Монография – Самарқанд: TURON NASHR, 2020. – 280 с.
9. Зайналов Ж.Р. Инновацион молиявий хизматлар: муаммо ва ечимлар. Монография. – Т.: "Иқтисод-Молия", 2020. – 368 б.



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz